

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.Fil.02.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

**URALOV AZAMAT BEGNAROVICH**

**O‘ZBEK TILI MORFOLOGIK SHAKLLARI TIZIMIDA  
NOMUTANOSIBLIK**

**10.00.01 - O‘zbek tili**

**FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2024**

**Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc) по  
филологическим наукам**

**Sontents of Dissertation Abstract of the Doctor of Science (DSc) in  
Philological Sciences**

**Uralov Azamat Begnarovich**

О‘zbek tili morfologik shakllari tizimida nomutanosiblik..... 3

**Уралов Азамат Бегнарович**

Асимметрия в системе морфологических форм узбекского языка..... 33

**Uralov Azamat Begnarovich**

Asymmetry in the system of morphological forms of the uzbek language ..... 67

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 72

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.Fil.02.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

**URALOV AZAMAT BEGNAROVICH**

**O‘ZBEK TILI MORFOLOGIK SHAKLLARI TIZIMIDA  
NOMUTANOSIBLIK**

**10.00.01 - O‘zbek tili**

**FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2024**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.2.DSc/Fil309 raqami bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Guliston davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasining (www.samdu.uz) hamda “Ziyonet” Axborot-ta’lim portalining www.ziyonet.uz manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Mirzaqulov Tursunali O‘tayeich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Xayrullayev Xurshid Zayniyevich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Xudayberganova Durdona Siddiqovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Iskandarova Sharifa Madaliyevna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Buxoro davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.02.03 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil “\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahar, Universitet xiyoboni ko‘chasi, 15. Tel.: (8366)239-11-40, 239-18-92, faks: (8366) 239-11-40; e-mail: rektor@samdu.uz. Samarqand davlat universiteti, bosh o‘quv binosi. 105-xona)

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Axborot resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel.: (8366)239-11-40, 239-18-92, faks: (8366) 239-11-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2024-yil “\_\_\_\_” \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**J.D.Eltazarov**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi,  
f.f.d., professor

**Sh.S.Mahmadiyev**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash kotibi,  
f.f.n., dotsent

**D.B.Urinbayeva**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy  
seminar raisi, f.f.d., professor

## KIRISH (doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligida turkiy tilshunoslikdagi morfologik birliklarning ko‘p ma’nodlilik, ko‘p vazifalilik, ma’nodshlik, shakldoshlik va zid ma’nodlilik xususiyatlariga qiziqish ortib bormoqda. Ayniqsa, davrlar o‘tishi bilan tildagi morfologik shakllarda ham shakl va ma’nodlari o‘zgarib bormoqda. Shu ma’nodda, ushbu birliklar tizimida shakl va mazmun o‘rtasida nomutanosiblik yuzaga kelmoqda. Asimmetriya – nomutanosiblik atamasi va uning talqinlari, til belgilarida shakl hamda mazmun nomutanosibligi, uning paradigmada semantika va leksikologiya bilan aloqadorligi, til modellari raqobati, morfologik shakllarning hosil bo‘lishidagi nomutanosibliklar, agglyutinatsiya va fuziya hodisalari bilan bog‘liq bo‘lgan nomutanosibliklar, shuningdek, murakkab shakllardagi nomutanosiblik singari masalalar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo tilshunosligida morfologik birliklarning ma’nosi hamda vazifalarini, ularning shakliy tomonidagi o‘zgarishlarni aniqlash tarixiy-an’anaviy, qiyosiy-chog‘ishtirish, diaxron va sinxron, sistem-struktur va antropotsentrik aspektdagi tadqiqotlarning markaziy muammolari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu haqidagi g‘oya barqarorlashgan hozirgi davr tilshunosligida morfologik birliklarning shakllanishi, tarixiy taraqqiyotidagi o‘zgarishlari, tilning morfologiya bo‘limidan mustahkam o‘rin olishi, morfem qurilish birliklarining, jumladan, sintetik, analitik, kengaygan shakllarning turli oppozitsiyalarda kelishi, shakllarning tejash tamoyillari, nomutanosiblikning ko‘p ma’nodlilikka, shakldoshlikka, ma’nodshlikka va ko‘p vazifalilikka aloqadorligi tilda barqarorlashish xususiyatlarini tarixiy manbalar matni asosida aniqlash dolzarblik kasb etmoqda.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida turli darajadagi tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, bugungi kunga kelib, o‘zbek xalqining ijtimoiy hayoti, milliy tilning rivojlanish qonuniyatlari, milliy tafakkur tarzidan kelib chiqib lisoniy birliklarning mavqeyi va maqomi baholanmoqda. “Ma’rifat fidoyilarining qoldirgan o‘lmas merosi bugungi kunda ham ma’naviyatimizni yuksaltirish, yoshlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi”<sup>1</sup>. Natijada morfologik shakllardagi agglyutinatsiya, fuziya, tejash tamoyillari, morfologik qayta bo‘linish va soddalashish, konversiya va transpozitsiya jarayonlarini tahlil qilish orqali til sathlararo nomutanosibliklarni aniqlash, qolaversa, sintetik, analitik va kengaygan shakllarning hosil bo‘lish jarayonlari, tarixiy taraqqiyotini ko‘rsatish hamda ular bilan bog‘liq nomutanosibliklar, ularning morfem sathdagi o‘rnini belgilash, morfologik shakllar tizimidagi nomutanosibliklarni tubdan o‘rganish o‘zbek tilshunosligidagi dolzarb masalalardan biri hisoblanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF – 158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF – 60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш. М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қураимиз. –Тошкент: Ўзбекистон, НМИУ, 2017. –Б. 178.

strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktabrdagi PF – 5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF – 6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF – 6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ – 2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PQ – 4884-son “Ta‘lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” hamda 2021-yil 25-yanvardagi PQ – 4963-son “Xalq ta‘limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi**<sup>1</sup>. Jahon tilshunosligida morfologiya nazariyasining shakllanishi, morfologik shakllar taraqqiyoti hamda morfologiyada nomutanosiblik masalalari bo‘yicha jahonning yetakchi ilmiy markazlari hamda oliy ta‘lim muassasalarida, xususan, Berlin Universitat, Goethe Universitat, Gottingen Universitat (Germaniya), University of Alberta (Kanada), Brown University, University of Quebec (AQSh), University of Cambridge, University of Oxford (Angliya), Hacettepe niversitesi, İstanbul niversitesi (Turkiya), Azrbaycan Milli Elmlr, Akademiyasi Dililik Instituti (Ozarbayjon), Moskva davlat lingvistika universiteti (Rossiya), shuningdek, O‘zbekistonning O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti, Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti, Samarqand davlat universiteti, Guliston davlat universiteti va boshqa universitetlarning tilshunoslik kafedralarida ham morfologik shakllar masalasiga oid tadqiqotlar olib borilmoqda.

So‘nggi yillarda morfologik shakllar nazariyasi, morfologik nomutanosibliklarga oid tadqiqotlar bajarilishi jarayonida qator, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: morfologik birliklarning ko‘chishi hamda morfemalarning fuziyasi dalillangan (İstanbul niversitesi, Turkiya); affiksoidlarning shakllanishi va morfemikadagi kengayish o‘rni hamda tildagi

---

<sup>1</sup>Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi [www.dissercat.com](http://www.dissercat.com), [www.colostate.edu](http://www.colostate.edu), [www.usyd.edu.au](http://www.usyd.edu.au), [www.berkeley.edu](http://www.berkeley.edu), [www.academia.edu](http://www.academia.edu), [www.udsu.ru](http://www.udsu.ru), [www.bsu.ru](http://www.bsu.ru), [www.philol.msu.ru](http://www.philol.msu.ru), [www.myfilology.ru](http://www.myfilology.ru), [www.libguides.usc.edu](http://www.libguides.usc.edu), [www.diva-portal.org](http://www.diva-portal.org), [www.cam.ac.uk](http://www.cam.ac.uk), [uspu.ru/](http://uspu.ru/), [www.herzen.spb.ru](http://www.herzen.spb.ru), <https://linguanet.ru/> va boshqa manbalar asosida amalga oshirildi.

shakl va mazmun mavqeyi belgilab berilgan (University of Cambridge, University of Oxford, Angliya; Göttingen Universität, Germaniya); tilning sistem-struktur bosqichiga o'tishida jahon tilshunosligidagi lisoniy birliklar, sintetik va analitik shakllarning hosil bo'lishi va til tizimidagi nomutanosiblik o'rni belgilangan (Moskva davlat lingvistika universiteti, Rossiya); morfologik obyektlarni xuddi sintaktik va fonologik obyektlar kabi grammatikaning muntazam obyektiga aylantirishni, morfologik munosabatlarning asimmetrik xususiyati til xususiyatining bir qismi ekanligi, nomutanosiblikning yuzaga kelishi, morfologiyadagi sistem, struktural va funksional o'rni belgilab berilgan (Brown University, University of Quebec, AQSh; Moskva davlat lingvistika universiteti, Rossiya; University of Alberta, Kanada); morfemalarning diaxron va sinxron jihatlarini isbotlangan (Akademiya Dilçilik Instituti (Ozarbayjon), grammatik shakllarning til tizimidagi irratsional o'rni, ularning morfem sathga murakkab ta'siri isbotlangan (Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti, Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti, Samarqand davlat universiteti, Guliston davlat universiteti, O'zbekiston).

Jahon tilshunosligida morfologik shakllar, ularda yuz beradigan nomutanosibliklarni o'rganishga oid muammolar doirasida, jumladan, quyidagi ustuvor yo'nalishlar ilgari surilmoqda: morfologik obyektlarni xuddi sintaktik va fonologik obyektlar kabi grammatikaning muntazam obyektiga aylantirish; morfologik munosabatlarning asimmetrik xususiyati til xususiyatining bir qismi ekanligini asoslash; morfologik birliklarda nomutanosib holatlarni, shuningdek, ularning sintaksisda o'rinlashuvi so'z tuzilishidagi asimmetriyaning markaziy (yadro)ligini tasdiqlovchi qo'shimcha dalillar topish; fe'l tarkibidagi prefikslarning asimmetriyasi hamda murakkab sintetik iboralardan analitik iboralarga o'tishi haqidagi nazariy fikrlarni asoslash; tillarda birlamchi elementlar tushunchalari va ularning nominatsiyalari tuzilishidagi asimmetriyaga baho berish; shaklning ma'noga, so'zning fono-morfematik tarkibi, semantik, morfotaxlit unsurlarga, interfiks va interfiksatsiya jarayonlari hamda morfem-morfologik "frazologiya"ga munosabatini belgilash.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Jahon tilshunosligida nomutanosiblik masalasi Skiullo Anna Marie Dilar<sup>1</sup>, N.D. Turaliyeva<sup>2</sup>, E.A.Voronsova<sup>3</sup>, O.G. Palutina<sup>4</sup> tadqiqotlarida, Stefan Anderson, Naom Chomskiy, Karlos Arregi<sup>5</sup>, S.Karsevskiy<sup>6</sup>, Anna Mariya Di Skiullo tahriri ostida Kembrij

<sup>1</sup> Sciullo Anna Marie Di. Asymmetry in morphology. – SSNA., 2005. –P. 264.

<sup>2</sup> Туралиева Н. Д. Асимметрия имен прилагательных в русском языке. Дисс. ...канд.филол.наук. –М., 2002.

<sup>3</sup> Воронцова Э. А. Формально-содержательная асимметрия в сфере частей речи как основа их функционального сближения. На материале класса прилагательных в английском языке. Дисс. ...канд.филол.наук. –М., 2004.

<sup>4</sup> Палутина О. Г. Асимметрия в структуре концептов первостихий и их номинаций в русском языке и американском варианте английского языка. Дисс. ...канд.филол.наук. –М., 2004.

<sup>5</sup> <https://www.researchgate.net/scientific-contributions/Karlos-Arregi-81109490>

<sup>6</sup> Карцевский С. Об асимметричном дуализме лингвистического знака. – В кн.: Звегинцев В.А. История Языкознания XIX-XX веков в очерках и извлечениях, ч. II. –М., 1965. –С. 85-93.

universiteti professorlari tomonidan yozilgan “Grammatikada asimetriya: 2-jild: Morfologiya, fonologiya, akustika”<sup>1</sup> nomli ilmiy to‘plamda o‘rganilgan.

Turkiy va o‘zbek tilshunosligida bu borada akademik A.N.Kononov, N.A.Baskakov, E.V.Sevortyan, A.G.G‘ulomov, S.Usmonov, G‘.Abdurahmonov, I.Qo‘chqortoyev, A.Hojiyev, A.Nurmonov, A.Berdialiyev, A.Abduazizov, Y.Tojiyev, S.Karimov, N.Mahmudov, T.Mirzaqulov, R.Sayfullayeva, N.Mahkamov, J.Eltazarov, B.Mengliyev, M.Jo‘raboyeva, F.Sharipov kabi olimlarning ishlarida<sup>2</sup> mavzu bilan bog‘liq holda turli tarixiy jarayonlar ko‘rib chiqilgan.

O‘zbek tilshunosligida A.Berdialiyevning “O‘zbek tilida so‘z yasovchi qo‘shma affikslar”<sup>3</sup>, T.Mirzaqulovning “O‘zbek tilida shakl yasovchi qo‘shma affikslar”<sup>4</sup> nomzodlik dissertatsiyalarida qo‘shma affikslar masalasi ko‘rib chiqilgan. Til birliklarini modellashtirish T.V. Buligina<sup>5</sup>, umumiylik va xususiylik dialektikasi D.Nabiyeva<sup>6</sup> kabi olimlarning ishlarida kuzatilsa, qo‘shimchalarning paydo bo‘lishi va shakllanishi haqida esa G.I.Ramstedt, V.L.Kotvich<sup>7</sup>, Muharrem Ergin va Vejihe Xatib o‘g‘li, A.N.Kononov singari olimlarning ishlarida qimmatli ma‘lumotlar berilgan. A.Berdialiyev tomonidan yaratilgan maxsus monografik tadqiqotda<sup>8</sup> so‘z tarkibida shakl va ma‘no nomutanosibligi masalasi yuzasidan diqqatga sazovor manbalar berilgan. Y.Tojiyevning affiksial sinonimiya, so‘z tarkibidagi tarixiy o‘zgarishlar<sup>9</sup>, M.Jo‘raboyevaning affiksial omonimiya<sup>1</sup>,

---

<sup>1</sup> Linguistik Aktuell / Linguistics Today. – Monreal: John Benjamins Publishing Company, 2003. –P. 316.

<sup>2</sup> Кононов А.Н. О фузии в тюркских языках / Структура и история тюркских языков. –М.: Наука, 1971. –С. 124-132; Баскаков Н.А. Историко-типологическая морфология тюркских языков. –М.: Наука, 1979; Севортян Э. Аффиксы глаголообразования в азербайджанском языке. –М., 1962; Гулямов А.Г. Проблемы исторического словообразования узбекского языка. Автореф. дисс. ...д-ра. филол. наук. –Ташкент, 1955; Usmonov S. O‘zbek tilida so‘zning morfologik tuzilishi. –Toshkent, 2010 (1964); Абдурахмонов Ф., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. –Тошкент: Ўқитувчи, 1973; Қўчқортоев И.Қ. Сўз маъноси ва унинг валентлиги. –Тошкент, 1977; Ҳожиёв А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясашининг назарий масалалари. –Тошкент: Фан, 2010; Нурмонов А. Танланган асарлар. III жилдлик, I жилд. –Тошкент: Академнашр, 2012; Абдуазизов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфологияси. –Тошкент: Ўқитувчи, 1992; Бердиалиев А. Словообразующие сложные аффиксы в узбекском языке. Автореф. дисс. ...канд.филол.наук. –Ташкент, 1970; Тожиёв Ё. Ўзбек тили морфемикаси. –Тошкент, 1992; Махмудов Н. Семантико-синтаксическая асимметрия в простом предложении узбекского языка. Автореф. дисс. ...д-ра. филол. наук. –Ташкент, 1984; Мирзакулов Т.У. Формообразующие сложные аффиксы в узбекском языке. Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. –Ташкент, 1980; Sayfullayeva R., Mengliyev B., Voqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek tili. –Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2009; Махкамов Н. Адабий норма ва плеоназм. –Тошкент, 1988; Элтазаров Ж.Д. Ўзбек тилида сўз туркумларининг ўзаро алоқаси ва кўчиши. Филол. фанлари д-ри ... дисс. автореф. –Тошкент, 2008; Менглиев Б. Тилшуносликнинг амалий масалалари –Тошкент, 2020. –Б. 89; Жўрабоева М. Аффиксал омонимларни белгилашнинг формал ва семантик принципларига доир / Ўзбек тилшунослиги масалалари. –Тошкент, 1975. –Б. 88-90; Шарипов Ф. Ўзбек замонавий морфологик назариясининг шаклланиши, тараққиёт тенденциялари ва истиқболлари. Филол. фанлари д-ри ... дисс. автореф. –Тошкент, 2022.

<sup>3</sup> Бердиалиев А. Словообразующие сложные аффиксы в узбекском языке. Дисс. ...канд. филол. наук. –Ташкент, 1970.

<sup>4</sup> Мирзакулов Т.У. Формообразующие сложные аффиксы в узбекском языке. Дисс. ...канд. филол. наук. –Ташкент, 1980.

<sup>5</sup> Булыгина Т.В. Проблемы теории морфологических моделей. –М., 1977.

<sup>6</sup> Набиева Д. Ўзбек тилининг турли сатхларида умумийлик-хусусийлик диалектикасининг намоён бўлиши. –Тошкент: Шарқ, 2005.

<sup>7</sup> Рамстедт Г.И. Введение в алтайское языкознание. –М.,1957; Котвич В.Л. Исследование по алтайским языкам. –М., 1962.

<sup>8</sup> Бердиалиев А. Сўз таркиби ва шакл-маъно номутаносиблиги. –Бишкек, 2013.

<sup>9</sup> Тожиёв Ё. Ўзбек тилида аффиксал синонимия (фёъл бўйича). –Тошкент, 1992.



N.Mahkamovning affiksial pleonazm<sup>2</sup>, N.Qodirovaning affikslarda polifunksionallik<sup>3</sup>, D.Ganiyevaning fe'lning vazifa shakllarida sinkretiklik va polifunksionallik<sup>4</sup>, M.Usmonovanning o'zbek tilida soddalanish,<sup>5</sup> J.Eltazarovning so'z turkumlarining o'zaro aloqasi va ko'chishi<sup>6</sup> bo'yicha tadqiqotlarida bu masalalar atroflicha yoritilgan. O'zbek tilshunosligida qo'shma affikslarga shaklan o'xshash, lekin ma'no-mazmun jihatidan ulardan farqli belgilarga ega bo'lgan formantlar hamda kengaygan shakllar haqida tadqiqot ishimizda<sup>7</sup> qayd etilgan. O'zbek tili morfologik shakllar tizimidagi kengaygan, analitik va sintetik shakllarda nomutanosibliklar, morfologik shakllarda tejash tamoyili bilan bo'g'liq nomutanosibliklar singari masalalar maxsus tadqiq etilmagan muammolardan biridir. Dissertatsiya ishi mana shu jihatdan turkiy hamda o'zbek tilshunosligida morfologiya va morfemika sohalarida bajarilgan tadqiqotlarning mantiqiy davomi hisoblanadi. Professor N.M.Mahmudovning "O'zbek tili sodda gaplarida semantik-sintaktik asimmetriya"<sup>8</sup> mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi nafaqat o'zbek tilshunosligi, balki turkiy tilshunoslikda ham nomutanosibliklar borasida muhim tadqiqot bo'lganligini alohida qayd etish zarur. Bu ishda mavzuga aloqador nazariy masalalarga alohida e'tibor qaratilgan.

O'zbek tilshunosligida morfologik shakllar tizimida dualizm, konversiya, transpozitsiya, morfologik birliklarda tejash tamoyili, morfologik birliklarning paydo bo'lishi, ko'p vazifalilik, shakl va ma'no munosabati, sintetik, analitik, kengaygan shakllardagi nomutanosiblik masalalari yuqoridagi manbalarda bayon etilgan bo'lsa-da, alohida tadqiqot mavzusi sifatida bugungacha to'liq ko'rib chiqilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining ish bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Tadqiqot Guliston davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "O'zbek tilshunosligining dolzarb muammolari" mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** morfologik birliklarning paydo bo'lishi va rivojlanishi, o'zaro munosabati, analitik, sintetik va kengaygan shakllarning lisoniy o'rnini aniqlash, morfologik birliklardagi nomutanosiblikning yuzaga kelishi va turlarini ochib berishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

nomutanosiblik tushunchasining lingvistik mohiyati, til belgilariga xos shakl hamda mazmun nomutanosibligini ochib berish;

---

<sup>1</sup> Жўрабоева М. Аффиксал омонимларни белгилашнинг формал ва семантик принципларига доир / Ўзбек тилшунослиги масалалари. –Тошкент, 1975.

<sup>2</sup> Маҳкамов Н. Адабий норма ва плеоназм –Тошкент, 1988.

<sup>3</sup> Қодирова Н. Ўзбек тилидаги аффиксларда полифункционаллик. Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. –Тошкент, 2002.

<sup>4</sup> Ганиева Д.А. Ўзбек тилидаги феълнинг функционал шаклларида синкретиклик ва полифункционаллик: Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф. –Тошкент, 2012.

<sup>5</sup> Usmonova M. O'zbek tilida soddalashish. –Toshkent, 2016.

<sup>6</sup> Элтазаров Ж.Д. Ўзбек тилида сўз туркумларининг ўзаро алоқаси ва кўчиши: Филол. фанлари д-ри ... дисс. автореф. –Тошкент, 2008.

<sup>7</sup> Уралов А. Ўзбек тили кўшимчалари тизимида мураккаб ва кенгайган шакллар. Филол. фан. бўйича. фалс. докт.(PhD) ... дисс. –Тошкент, 2019.

<sup>8</sup> Махмудов Н. Семантико-синтаксическая асимметрия в простом предложении узбекского языка. Автореф. дисс. ...д-ра. филол. наук. –Ташкент, 1984.

morfologik shakllarda asimmetrik dualizm, konversiya va transpozitsiya jarayonlarining mavqeyini aniqlash;

tejash tamoyili orqali nomutanosiblikning ko‘rinishlarini dalillash;

morfologik shakllar tizimida nomutanosiblikning ko‘p ma’nodoshlik, shakldoshlik, ma’nodoshlik va ko‘p vazifalilikda yuzaga chiqishini asoslash;

morfologik shakllarning taraqqiyotidagi nomutanosibliklarni tadqiq etish, agglyutinatsiya va fuziya jarayonlarida nomutanosiblikning yuzaga chiqishini ochib berish;

nomutanosiblikning sintagmalarda diaxron va sinxron ko‘rinishlarini hamda til sathlari bilan aloqadorligini aniqlash;

affiksoidlarning yuzaga kelishi bilan bog‘liq nomutanosibliklarning ko‘rinishlari va xususiyatlarini asoslash;

o‘zbek tili morfologiyasida murakkab: sintetik, kengaygan va analitik shakllarning hosil bo‘lishi, mavqeyi hamda ularning taraqqiyotida nomutanosiblikning yuzaga chiqishini ochib berish.

**Tadqiqotning obyekti sifatida** o‘zbek tili morfologik shakllari: ko‘plik, egalik, kelishik, erkalash-kichraytirish; zamon, mayl, shaxs-son, daraja, nisbat ko‘rsatkichlari hamda morfologik shakllarning sintagmatik va paradigmatic munosabatlardagi mavqeyi, ko‘chishi, tejalishi, fuziyasi, murakkablashuvi olingan.

**Tadqiqotning predmetini** O‘zbek tili morfologik shakllar tizimi birliklarining tarixiy taraqqiyoti va shakliy-ma’noviy o‘zgarishlarini, tejash tamoyilining turlarini aniqlash, ularning fuziyasini, murakkab va kengaygan shakllardagi nomutanosibliklarni aniqlash tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada qiyosiy-tarixiy, chog‘ishtirish, qiyoslash, tavsiflash, tasniflash, umumlashtirish va komponent tahlil, diaxron va sinxron usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

egalik, kelishik, son, zamon, shaxs-son, mayl kabi morfologik shakllarning diaxron va sinxron ko‘rinishlari asimmetrik dualizm, konversiya, transpozitsiya hamda tejash tamoyillariga ko‘ra shakl va mazmun jihatdan nomutanosibliги ochib berilgan;

morfologik shakllar tizimida nomutanosiblikning ma’no jihatiga ko‘ra ko‘p ma’nodoshlik, shakldoshlik va shakl jihatiga ko‘ra ma’nodoshlik, tejash tamoyili, allomorf, invariantlar hamda vazifa jihatiga ko‘ra ko‘p vazifalilik, ko‘chish yuzaga chiqishida til rivojining ijtimoiy va ichki qonuniyatlariga mosligi asoslangan;

agglyutinatsiya va fuziya jarayonlari o‘zbek tili morfologik shakllari rivojida ijtimoiy ong, ijtimoiy tafakkur qonuniyatlari bilan uzviy bog‘liqlikda ekanligi, morfologik birliklarning shakl, mazmun hamda vazifa muvofiqligidagi mutanosiblik diaxronik hamda sinxronik sababga ko‘ra nisbiy ekanligi isbotlangan;

til tizimida affiksoidlarning shakllanishi, tegishli mavqega ega bo‘lishi til egalari ongida muayyan lingvistik qiymatning umumiyliги va farqlanishi natijasida til andozalari qolip, model kabi raqobati bilan bog‘liq jarayonlar ifodasi ekanligi *Azimxon, Nodiraxonim, Jamolxon, akaxon* kabi misollar asosida ochib berilgan;

morfologik shakllar tizimida turli sinxron davrlarning birliklari o‘zaro munosabatda mavjud birliklardan yangi birliklarning hosil bo‘lishi, kengaygan

shakllar va qo'shma affikslar struktur jihatdan o'xshashligi, lekin tarkibiy qismlarining mazmun jihatidan farqli tomonlarga egaligi "Boburnoma", "Muhokamatul lug'atayn" kabi tarixiy va "O'tkan kunlar", "Abadiyat oralab" singari badiiy asarlar orqali aniqlangan;

tilning hozirgi sinxron tizimida qo'shma tarkibga ega bo'lgan analitik morfem shakllarning miqdori belgilanib, ularning maqomi qo'shma affikslar, murakkab va kengaygan shakllar doirasidagi o'zaro o'xshashlik va farqli tomonlar tushuncha maydonlari yoki funksional-semantik maydon tamoyillari asosida sintetik, analitik shakllardagi nomutanosibliklar dalillangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

morfemalar paydo bo'lishida nomutanosibliklar aniqlanib, o'zbek tili morfologik shakllari tizimida agglyutinatsiya va fuziya qonuniyatining to'liq ishlashi haqidagi ma'lumotlar, tavsiya va xulosalar ona tili ta'limi mazmunini takomillashtirishga xizmat qilishi asoslangan;

dualizm, konversiya va transpozitsiya jarayonlari bilan bog'liq nomutanosibliklar morfologik shakllarda amal qilishi isbotlangan;

o'zbek tilshunosligining morfologiya bo'limida lug'aviy birliklarning taraqqiyot tufayli qo'shimchalarga aylanish jarayonlari, affiksoidlardagi nomutanosibliklar ilk bor monografik planda tadqiq etilgan, ularning paydo bo'lish usullaridagi nomutanosibliklar isbotlangan;

sintagmalarning struktur asimmetriyaga munosabati ko'rsatilib, til taraqqiyotida morfem birliklar tarkibidagi o'zgarishlarning sodir bo'lishi hamda morfologiyada tejash tamoyili nisbatan to'liq amal qiladigan tur va ko'rinishlari aniqlangan;

tadqiqotimiz natijalariga ko'ra qo'shma affikslar, analitik hamda sintetik shakllar, kengaygan shakllar atamaları qamrov doirasi an'anaviy qarash bilan birga yangi fikr va mulohazalar bilan boyitildi. Ushbu birliklarning umumiy belgisiga ko'ra ilmiy va ilmiy-uslubiy qulaylik yaratish maqsadida murakkab shakllar atamasi taklif etilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** ma'lumotlarning ishonchli, fundamental ilmiy-metodik maxsus adabiyotlarga tayanilganligi, avval qo'lga kiritilgan nazariy manbalardan olinganligi, tadqiqot natijalarining turli tahlil usullari yordamida aniqlanganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, uning nazariy konsepsiyasiga mos kelishi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati morfemalar paydo bo'lishi, agglyutinatsiya va fuziya qonuniyatining to'liq ishlashi, asimmetrik dualizm, konversiya hamda transpozitsiya hodisasi, affiksoidlarning yuzaga kelishidagi nomutanosibliklar, morfologiyada tejash tamoyilining to'liq amal qiladigan bir qancha ko'rinishlaridagi nomutanosibliklar, murakkab shakllarning hosil bo'lishida morfem birliklar nomutanosibliği, o'zbek tilshunosligidagi tegishli talqinlarni boyitish maqsadida ayrim morfologik shakllar, jumladan, analitik, sintetik, kengaygan shakllar talqinlari, shuningdek, bu shakllarning lingvistik xususiyatlarining ochib berilganligi, natijada morfologik shakllar tizimini boyitishga xizmat qilishi asoslangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan xulosalardan oliy ta'lim muassasalarining filologiya va tillarni o'qitish yo'nalishi bakalavriyat hamda magistratura talabalariga "Hozirgi o'zbek adabiy tili", "Morfologiya", "Morfologiyaga kirish", "Til tarixi", "O'zbek tili morfemikasi" fanlaridan darslik va qo'llanmalar yaratishda, maxsus kurs va seminarlar tashkil etishda, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O'zbek tili morfologik shakllar tizimida nomutanosibliklarni o'rganish asosida:

morfologik birliklarni aniqlash, o'zbek tili ta'limiy korpusini yaratishda morfologik shakllardan axborot bazasi sifatida foydalanish imkoniyatini yoritish, o'zbek tilining izohli, ensiklopedik lug'atlaridan murakkab hamda morfologik kengaygan shakllar axborotlarini olish usuli va vositalarini ko'rsatish, o'zbek tilining morfem lug'atidan morfemalar tizimidagi agglyutinatsiya va fuziya munosabatini ta'limiy korpusda aks ettirish va ma'lumotlar bazasini shakllantirishda Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasidagi 2020–2022-yillarga mo'ljallangan AM – F3-201908172-raqamli "O'zbek tilining ta'limiy korpusini yaratish" nomli amaliy grant loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 15-fevraldagi 01/4-311-son ma'lumotnomasi). Natijada lug'atlarda yuzaga keladigan ayrim so'zlarning yozilishi hamda tarixiy shakllanishi yuzasidan muammolar hal etilgan;

til tarixida so'zlarning kelib chiqishi, termin va so'zlarning etimologik tomonidan ochiqilanishi, o'zbek tilining tarixiy taraqqiyoti davomida tub so'zlar va o'zlashma so'zlarni aniqlashda turkiy va sug'diy so'zlardan foydalanishda dissertatsiyaning ilmiy natijalari va materiallaridan Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasidagi 2017–2021-yillarga mo'ljallanib, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan FZ-2016-0914124453: "O'zbek davlatchiligi tarixida sug'diy til va yozuvining tutgan o'rni (miloddan avvalgi II milodiy XII asrlar)" mavzusidagi fundamental grant loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 15-fevraldagi 04/1-297-son ma'lumotnomasi). Natijada tarixiy so'zlarning kelib chiqishi, morfem birliklarning shakllanishi hamda rivojlanishi yuzasidan loyiha materiallari boyigan;

yasama so'zlarning derivatsion xususiyatlari, morfem birliklar tarkibidagi struktur o'zgarishlari, affiksoidlar va ulardagi nomutanosibliklar, murakkab va morfologik kengaygan shakllar haqidagi ilmiy natijalar va materiallardan Davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida 2021–2023-yillarga mo'ljallangan PZ-202004165 raqamli "Umumiy o'rta ta'limning boshlang'ich sinf o'quvchilarida og'zaki va yozma nutqiy kompetensiyalarni rivojlantiruvchi elektron platforma yaratish" mavzusidagi amaliy grant loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 15-fevraldagi 01/4-312-son ma'lumotnomasi). Natijada loyiha yangi manbalar bilan boyigan hamda so'zlarning kelib chiqishi va bugungi holatdagi imlo me'yoriga mosligi aniqlashtirilgan;

morfologik birliklarning paydo bo'lish yo'llari hamda turlari, boyish manbalarini ko'rsatish va dalillash, funksional transpozitsiya hodisalari yuzasidan

ma'lumotlarni qiyoslash hamda morfem birliklarda ko'chish holatlarni ko'rsatish, til taraqqiyotida morfem birliklar tarkibidagi o'zgarishlarga asoslanib, morfologiyada tejash tamoyilining o'rnini ko'rsatish, kengaygan shakllarning tarixiy jarayonlari, til tizimidagi o'rni va ayrim turlarini ko'rsatish hamda uning qo'shma affikslardan farqli tomonlarini belgilash haqidagi masalalarning yoritilishi haqidagi dissertatsiyaning nazariy xulosalaridan "O'zbekiston" teleradiokanalida namoyish etilgan "Munosabat", "Oydin hayot – live" ko'rsatuvlarining ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston teleradiokanali davlat muassasasining 2023-yil 23-fevraldagi 02-13-303-son ma'lumotnomasi). Natijada ko'rsatuv samarasi oshgan, so'zlarning ishlatilishi va yozilishi borasida yangiliklar o'zlashtirilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 13 ta ilmiy-amaliy anjuman va seminar, jumladan, 4 ta xalqaro va 9 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida aprobatsiyadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 35 ta ilmiy ish nashr etilgan bo'lib, shundan 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 21 ta maqola, jumladan, 15 tasi respublika, 6 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to'rt asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 249 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad hamda vazifalari, obykti, predmeti, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqotning joriylanishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi haqidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan.

Dissertatsiyaning **"Morfologik shakllar nomutanosibligining umumnazariy masalalari"** deb nomlangan birinchi bobi to'rt bo'limdan iborat. Bobning **"Nomutanosiblik tushunchasining lingvistik mohiyati"** deb nomlangan birinchi bo'limida "nomutanosiblik" termini, uning o'rganilishi, sohalarda qo'llanishi haqida fikrlar berilgan. Jumladan, nomutanosiblik termini qadimgi yunon tilida "asimetriya" (asymetria – "nomutanosiblik", metrz – "o'lchov qilaman") – simmetriyaga mos emas, simmetriyaning buzilishi yoki yo'qligi ekanligi tahlil etildi. Tilda esa tabiiy tilning tuzilishi va ishlatilishining asosiy xususiyatlaridan birini ko'rsatuvchi, til birliklari orasidagi munosabat – tuzilishi va ishlatilishidagi tartib, qonuniyat hamda bir xillikdan og'ish tarzida tushunildi.

O'zbek tilshunosligida birinchi bo'lib gapda shakl va mazmun munosabati, ular orasidagi asimmetrik dualizm hodisasini keng qamrovda, chuqur ilmiy saviyada belgilab bergan olim N.M. Mahmudovdir. Olim ayni shu mavzuga bag'ishlangan doktorlik dissertatsiyasida gapning nafaqat formal, balki mazmun tomoniga ham e'tiborning kuchayganligini qayd etib, sintaktik nazariyada sintaktik

birliklarning barcha formal-semantik xususiyatlarini hisobga oluvchi yangi yo‘nalish – semantik sintaksis paydo bo‘lganligini ko‘rsatadi<sup>1</sup>.

Morfologik shakllar tizimida nomutanosiblik so‘zda yaxlit gavdalanadi. Binobarin, so‘z ma‘lum bir shaklda ifodalanadi, ifodalangan har qanday so‘z shaklining kamida bir mazmun uchun xizmat qilishi tabiiy hol. Shakl va mazmun dualizmi bir-biriga o‘zaro mutanosib yoki nomutanosib bo‘lishi mumkin. Shu sababli nomutanosiblik shakl va mazmun munosabatida ko‘rinadi.

Nomutanosiblik faqat shaklga emas, ko‘proq mazmun jihatiga tegishli. Sabab shundaki, so‘z o‘zi ifodalayotgan mazmundan tashqari matn tarkibida qo‘shimcha ma‘nolarni ham ifodalaydi. Bu holat morfologik shakllar tizimidagi affikslar orasida ham sodir bo‘lishi mumkin.

Tilning o‘zgaruvchanligiga ijtimoiy hodisa sifatida qarab, shuni aytish mumkinki, til birliklari, jumladan, morfologik shakllar ham umumiy mohiyatini saqlagan holda rivojlanish nuqtayi nazardan ma‘no va vazifa jihatdan o‘zgarib, soddalanish, qayta taqsimlanish va o‘rinlashish jarayonlariga ham “tortilib turadi”. Bunday tortilishlar, tildagi qayta bo‘linishlar til tizimida vaqtga parallel ravishda turli holatda va davrda ro‘y beradi. Morfem birliklarning bunday usulda kengayishi yoki torayishi tildagi yangi morfemalarning ortib borishiga, leksemalar yasalishiga olib keladi. Natijada esa, tilning dastlabki morfologik shakllari o‘zgaradi va keyinchalik shakllangan birliklar birinchisiga nisbatan nomutanosiblikni yuzaga keltiradi.

**“Til belgilarida shakl hamda mazmun nomutanosibli”** nomli bo‘limda nomutanosiblik terminining ishlatilishi, “til belgilarida shakl va mazmun tomonlari o‘rtasidagi bog‘lanishning uzoqlashuvi, umumiy holatdagi nomutanosiblikni ko‘rsatish uchun”<sup>2</sup> ifodalanishi, til belgilarining shakl hamda mazmun nomutanosibli masalasi o‘rganilgan.

Tilshunoslik tarixida ikki tomonlama birliklar tartibida ma‘noga ahamiyat bermaslikning oqibati qanday natijalarga olib kelganligi haqida taniqli tilshunos V.M.Solnsev fikr yuritib, tilshunoslikdagi biror oqim, hatto eng radikal oqimlar ham ma‘noga murojaat qilmasdan ish ko‘rolmaganligini ta‘kidlaydi va “Til shuning uchun tilki, uning birliklari oddiy tovushlar birikmasi (kombinatsiyasi)dan iborat emas, uning birliklari muayyan mazmunga ega, o‘z tarkibida turli ma‘nolarni qamraydi, u yoki bu g‘oyani ifodalash qobiliyati mavjud. Semantika yoki ma‘no bu tilning qalbidir”<sup>3</sup>, – deb yozadi. Shu sababli tildagi har bir shakl ma‘lum bir mazmunni ifodalashga yoki mazmun ifodalanishiga xizmat qiladi. Mazmunning kengayib borishi har bir belgi uchun mos holat bo‘lsa-da, belgilarning ortib borishi ham yangi mazmunlarni kashf etib boradi.

Belgilarning mazmun mohiyati til tizimidagi o‘rni va rolini belgilab beradi. Har bir tilda bo‘lgani singari o‘zbek tilida ham bir shaklning kamida bir mazmun ifodalashi tabiiy hol. Birinchidan, ifodalanayotgan mazmun qamrovi keng bo‘lsa,

<sup>1</sup> Махмудов Н.М. Семантико-синтаксическая асимметрия в простом предложении узбекского языка. Автореф. дис. ... д-ра. филол.наук. –Ташкент, 1984. –С. 6.

<sup>2</sup> Большой энциклопедический словарь. Языкознание. –М., 2000. –С. 47.

<sup>3</sup> Солнцев В.М. К вопросу о семантике или языковом значении. – Предисловие к сборнику «Проблемы семантики». –М., 1974. –С. 4.

ifodalanmish shakl tilning ixcham, qulayligini ko'rsatadi va bunda muloqot maydonidan semiotik maydon qamrovi katta bo'ladi. Ikkinchidan, mazmuni ifodalovchi shakllar miqdori ko'p bo'lsa, tilni ifodalash imkoni keng bo'ladi, o'rganish va o'zlashtirish qiyinlashadi, muloqot osonlashadi hamda tilning so'z bazasi ko'p bo'lib, boy til hisoblanadi.

Biz ma'no anglashish holatini ayrim harflarning tushib qolishida ham sezib turamiz. Chunki anglanishi kutilayotgan mazmun aniq bo'lganida umumiy shakl qaysi ma'noga xizmat qilayotgani ma'lum bo'lib qoladi. Shu sababli ayrim shakllarning aynan bir ma'noga xizmat qilishi o'sha mazmun doirasida mutanosib bo'lishini talab qiladi.

Ma'noning shaklga bog'liqligi, o'sha shaklga nisbatan olinishi to'g'ri qaror qabul qilish uchun asos bo'ladi. Biz uchun ko'p "iste'mol qilinadigan" *biz, siz, ular* olmoshlariga *-lar* shaklini qo'shganimizda ayrim holatlarda ko'plikka nisbatan hurmat anglatishi olmoshlar borasidagi nomutanosiblikni shakllantiradi. *Sizlar* shaklidagi *siz* hurmat ma'nosini, *-lar* esa ko'plik ma'nosini anglatadi. *Siz o'tiring, siz ham o'tiring*. Misoldan anglashilmoqdaki, *siz* olmoshi hurmat uchun ishlatilmoqda, bunda *sen* shaklining *siz* – ko'plik shakli ma'lum ma'noda o'z mavqeyini yo'qotmoqda. Ya'ni birlik shaklida qo'llanmoqda. *Siz* shakli hurmat ma'nosiga o'tganligi bois unga ko'plik shakli qayta qo'shilishi lozim bo'ladi va unga *sizlar* shakli yaxlitligicha ko'plikni anglatish vazifasini yuklaydi: *siz turing, siz ham turing! Sizlar o'tiring*. Ko'plik shakli sifatida e'tirof etilgan *siz* shakli o'z vazifasini qisman yo'qotib *-lar* shakliga ehtiyoj sezadi. Bu morfologik shakllarning ma'no ifodalashiga ko'ra nomutanosiblikni keltirib chiqarmoqda.

Birinchi bobning uchinchi bo'limi "**Morfologik shakllarda dualizm, konversiya va transpozitsiya jarayonlari bilan bog'liq nomutanosibliklar**" deb nomlanadi. Asimmetrik dualizm masalasi sintaksis va mantiq ilmiga doir ayrim adabiyotlarda ko'proq qayd etilsa-da, lekin uning tub mohiyati morfologiyada fundamental tadqiqot sifatida to'laligicha ochib berilmagan.

Asimmetrik dualizmning mohiyatidan kelib chiqib, morfologik shakllar tizimidagi erkalash-kichraytirish shakllarida bu holatni kuzatish mumkin. *-chak* shakli bilan ifodalanayotgan *kelinchak* so'zining mohiyati va mazmuniga e'tibor qaratamiz. Dastlab, *kelin* + *chak* morfemalaridagi *-chak* shakli kichraytirish, so'ngra erkalash mazmuniga xizmat qiladi, keyinchalik bu shakl hurmatlashni ham ifodalaydi. Tilimizning hozirgi taraqqiyotida erkalash va kichraytirish bir shaklga yuklanmoqda. *Sizga endi bir kelinchak olib bersak. Ko'ngliga qarab, kelinchagingizni yoningizda olib yurasiz-da*. Misoldan ko'rinadiki, bir shaklning turli ma'nolar ifodalay olishi yoki ifodalashi – asimmetrik dualizm morfologik shakllar tizimidagi erkalash va kichraytirish shakllarida ham kuzatiladi (1.1-rasm).



**1.1-rasm. Bir shaklning turli ma'nolarda ifodalanishi.**

Morfologik shakllar tizimidagi *-(i)sh*, *-(u)v* fe'lining harakat nomi shakli mazmunan boshqa ma'nolarni ham ifodalashi fanda ko'p kuzatiladi. Chunonchi, *-(i)sh* (borish, kelish, turish, o'qish) harakat nomidan tashqari otlashuv asosida otlar yasaydi. Shakllanish va vazifa nuqtayi nazaridan otlarga moyillik kuchayib, funksional transpozitsiya holatida vaqtincha otlik xususiyati ortadi. Aslida harakat nomi otlarga tortilgan fe'l bo'lib, bir shaklning ikki mazmunga xizmat qilishi asimmetrik dualizmni yuzaga keltirmoqda. Bu yuzaga chiqish holati funksional transpozitsiya orqali amalga oshadi. M: *o'qish kitobi*, *o'qish fani*, *o'qish darsi...*

*-(u)v* harakat nomi shakli ham (kechuv, boruv, ishlov, keluv, biluv) otlashishga moyil. Bu shaklning ham funksional transpozitsiya yo'li bilan otlarga o'tishi kuzatiladi, ayrim holatlarda ot yasovchi maqomini oladi. Dastlab otlashuv yo'li bilan *eshittiruv* (eshittiruvga chaqirmoq), *o'quv* (o'quv quroli, o'quv yili), *uchrashuv* (uchrashuv joyi, uchrashuvga chiqmoq, Uchrashuv kafesi), *kechuv* (kechuv joyi, kechuvdan o'tmoq), *yozuv* (yozuv daftari, yozuvi chiroyli / chiroyli yozuv) kabi misollarda transpozitsiyani kuzatsak, *saylov*, *o'quv*, *qidiruv*, *ko'rsatuv*, *qurshov*, *yozuv* kabi so'zlarda batamom otga o'tgan shaklini ko'rishimiz mumkin.

Demak, harakat nomining funksional transpozitsiya yo'li bilan yasovchiga aylanishi nomutanosiblikning dualizm ko'rinishini isbotlaydi.

Tadqiqot natijasida ko'chishning ikki shakli mavjudligi aniq bo'ldi: konversiya va transpozitsiya. Tilshunoslikda konversiya – so'zlar uchun umumiy bo'lgan ma'noning o'zgarishi orqali yangi ma'noli birliklarni hosil qiladi. Bu holatda asosan so'z turkumi o'zgaradi, ya'ni bir turkum doirasidan boshqa bir turkum doirasiga ko'chadi. F.Sharipovning so'z yasalishi bilan bog'liq qarashlarida “o'zbek tilshunosligida ham morfologiyaning leksikologiya bilan yaqinligi, ayniqsa, morfologik yo'l bilan – affikslar orqali so'z yasashda yoki bir turkumdagi so'zning boshqa turkumga o'tishida ochiq ko'rinib turishi”<sup>1</sup> ta'kidlansa, ayrim manbalarda bunga “yasalishning bir turi” deb ham qaraladi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, ko'chishdagi mohiyat biror so'z turkumining boshqa bir so'z turkumiga o'zgartirish xarakterida bo'lishi bu hodisaning tashqi yasalish ko'rinishida ekanligini anglatadi. Biroq bu jarayon bir hodisaning avvalgi holatini saqlab qolib, boshqa holatga o'tishi – o'zgarishi xarakterida emas, balki avvalgi ko'rinishini saqlagan holda yangi ma'noga ham ega bo'lishidir. Demak, bu aslida ko'chish emas, balki boshqa tomondan qaraganimizda, ma'noning kengayishi (ba'zida yasalishi) hisoblanadi.

Birinchi bobning to'rtinchi bo'limida “**Morfologik birliklarda tejash tamoyili orqali nomutanosiblikning ko'rinishlari**” masalasi o'rganilgan. Ma'lumki, morfologiyada tejash tamoyili bevosita sintagmaga bog'liq holda amalga oshadi. Tilda ro'y berayotgan o'zgarishlar morfologik shakllar tizimidagi ayrim birliklarga ham o'z ta'sirini o'tkazib, ular tarkibida sintagmatik va paradigmatic qutb doirasida o'z ifodasini ko'rsatadi. Ayrim shakllarning qisman o'zgarishi, ayrimlarining esa tushib qolishi, ayrimlarining soddalikka o'tib tublashishi tabiiy jarayon sifatida kechadi. Binobarin, til tuzilishining tafakkur

---

<sup>1</sup> Шарипов Ф. Ўзбек замонавий морфологик назариясининг шаклланиши, тараққиёт тенденциялари ва истиқболлари. Филол. фанлари д-ри ... дисс. автореф. –Тошкент, 2022. –В. 21.



mezonlaridan biri bo'lmish tushuncha bilan bog'liq bo'lgan hosilasi, ya'ni so'z va unda ro'y berayotgan tarkibiy o'zgarishlar jamiyat ishtirokchilari va tilshunoslar e'tiboridan chetda qolmasligi ayondir.

Morfologik birliklar va morfemikada bunday tejash tamoyillari nisbatan kam uchraydi. Masalaning ikkinchi tomoni shundaki, morfem birliklarda tejash tamoyili ayrim hollarda og'zaki nutqda faolroq ko'rinadi. Bo'lim doirasida morfologik shakllar tizimida tejash tamoyillari bilan bog'liq bo'lgan 11 ta holat haqida tadqiq o'tkazdik. Shuningdek, tejash tamoyili orqali nomutanosiblikning yuzaga chiqishi isbotlandi.

Morfemani nol forma orqali ifodalash yoki nol formaga teng birlikda (yashirin) ifodalanishi: *bolalar kelishdi(lar)*, *bu kitob qiziq(dir)*, *kitob(ni) o'qimoq* kabi.

Kelishik morfemalarining qisqarishi orqali tejash tamoyili yuzaga chiqadi. Bunda ko'proq uning poetik matn talabi bilan yuzaga chiqishi kuzatiladi: *tuprog'in(ing)*, *men(n)ing kitobim*, *seni(ng) dalang*.

Tovush tushishi tejash tamoyilini shakllantiradi. Fonetik hodisa sifatida fanda ko'p o'rganilgan bu holat tejash tamoyili asosida yuzaga kelgan: *o'g'(i)lim*, *shah(a)rim*, *ikk(i)ov*, *olt(i)ov*, *yett(i)ov* kabi.

Morfologik birliklarning abbreviatsiya yo'li bilan qisqarishi, ya'ni so'zning yaxlit yoki qisman qisqartirilib yozilishi: *BMT*, *GulDU*, *MDH*, *A.N.*, *Z.M.Bobur...*

Ko'makchi (to'liqsiz) fe'llarning qisqarishi orqali tejash tamoyili yuzaga keladi. Ko'makchi fe'llarning, jumladan, to'liqsiz fe'llarning tejalishi diaxron hamda sinxron jihatdan: *bora+yotib+erdi* – *bora+yap+di* – *bor+yapti*; *borar edi* – *borar+di*; *o'qi+gan edi* – *o'qi+gan+di*, *borgan emish* – *borgan+mish* kabi shakllarda uchraydi.

Atoqli otlar (ism va familiyalar)da yuzaga keladigan tejash tamoyili. *Xolmat*, *Shermat*, *Mamat*, *Mamajon*, *Lutfi*, *Faxri*, *Shahri* singari ko'plab ismlarda kuzatiladi. *Xolmuhammad*, *Shermuhammad*, *Muhammadjon*, *Lutfiddin*, *Faxriddin*, *Shahriddin* kabi ismlar talaffuzi me'yorlarida imkon qadar qisqarishga intiladi.

Shevalarning talabi bilan tejash tamoyili. Sheva elementlari va og'zaki nutq talabi bilan tejash tamoyili amal qiladi: *olib bor*, *tarqalgan*, *bo'lsa* singari ko'plab so'zlar *op bor (obbor)*, *tarqagan*, *bo'sa* shaklida tejaladi.

Asosga qo'shimchalarning qo'shilishi orqali morfologik birlik tarkibida tejash tamoyili. *Olg'a* so'zida qo'shimchanning asosga qo'shilishi orqali tejash tamoyiliga ko'ra old+ga shaklida bo'lganligini aytish o'rinli. *Bor+ar men* ko'rinishidagi birikuvdan hosil bo'lgan *boraman* shakli tejash tamoyilining shu tamoyili asosida yuzaga kelgan.

Ikki asosning (so'zning) qo'shilishi natijasida tejash tamoyili. *Quruqchoy* – *quritilgan choy*, *sho'rdanak* – *sho'rlatilgan danak*, *oybolta* – *oyga o'xshagan bolta (oysimon bolta)*, *toshko'mir* – *toshdek ko'mir* kabi.

So'zlarda she'riy vazn (notiqlik) talabi bilan tejash tamoyili. *Birlan(birla)* – *bilan–bila* – *ila* – *la* shakllarining tashqi ko'rinishi ham shakl jihatidan, ham nutq momenti jihatidan tejash tamoyiliga kiradi.

Aynan ikki birlikni qisqartirib, birini (yoki har ikkisi teng) ishlatilishi yoki kuchaytirish, yoki takrorlash evaziga tejash tamoyili. Masalan, *-masdan* shaklini

-may shaklida qoʻllanishi kuzatiladi: *Qaramasdan javob berdi – qaramay javob berdi.*

**“Morfologik shakllar tizimida nomutanosiblikning yuzaga chiqishi”** nomli ikkinchi bobning birinchi boʻlimi **“Nomutanosiblikning koʻp maʼnolilik, shakldoshlik, maʼnodoshlik va koʻp vazifalilikda yuzaga chiqishi”** deb nomlanadi.

Nomutanosiblik maʼno jihatiga koʻra, shakl jihatiga koʻra, vazifa jihatiga koʻra boʻlishi mumkin. Maʼno jihatiga koʻra nomutanosiblik asosan ikki xil koʻrinishda kuzatiladi: koʻp maʼnolilik va shakldoshlik. Shakl jihatiga koʻra esa nomutanosiblik toʻrt holatda kuzatiladi: maʼnodoshlikda, tejash tamoyillarida, allomorflarda va invariantlarda. Vazifa jihatiga koʻra esa koʻp vazifalilik va koʻchish (konversiya va transpozitsiya)da namoyon boʻladi.

*-lar* shakli. Tartibga koʻra bir shakl oʻz maʼnosidan boshqa mazmunni ham ifodalasa, koʻp maʼnolilik xarakterli shakl hisoblanadi<sup>1</sup>. Koʻp maʼnolilik esa bir shaklning boshqa mazmun ifodalashiga nisbatan nomutanosiblikni yuzaga chiqaradi.

*Otamlar, onamlar* kabi soʻzlarda hurmatning koʻpligi; *janoblari, hazratlari* – pichingning koʻpligi; *koʻzlar, quloqlar* – taʼkid bilan bir qatorda miqdorning koʻpligi; *tillar, yuraklar* – taʼkidning koʻpligi; *beshlar, oʻnlar* – chama-taxminning koʻpligi; *boshlarim ogʻridi* birikmasida ogʻriqning koʻpligi singari maʼnolarni ifodalaydi. Shu asnoda aytish mumkinki, *-lar* shaklining keyingi “hayoti” davomida qoʻshimcha maʼnolar anglatishi (polisemiya) oʻz maʼnosidan uzoqlashib ketmagan. *-lar* shakli har qanday soʻzga qoʻshilganda koʻplik maʼnosini toʻlaligicha yoki qisman saqlab qoladi. Binobarin, sinxroniyaning talabi diaxroniyaning zamirida yuzaga keladi. Bu jarayon nomutanosiblikning koʻp maʼnolilik xususiyatini ochib beradi.

*-m (-miz, -ng)* morfologik shakli. *-m* egalik shakli tashqi tomondan shaxs-son shakli bilan bir xil. Qaysidir maʼnoda shakldosh. Ammo bu shakldoshlik orasida ichki bogʻlanish saqlanib qolgan. Bu shunday aloqaki, har ikkisida ham shaxs koʻrsatkichiga, har ikkisida ham son koʻrsatkichiga ega. Demak, bu shakllar tashqi tomondan bir xil boʻlganligi bilan ichki tomondan shaxs va sonda bogʻlanadi: xona+m – bordi+m.

Aslida, affikslar oʻrtasidagi shakldoshlik koʻp maʼnolilikdan ham kelib chiqadi. Tadqiqotlarda taʼkidlanishicha, “morfemik polisemiya keng tarqalgan hodisa. Bu morfemaning polifunksionalligiga bogʻliqdir”<sup>2</sup>. Bizningcha, koʻp maʼnolilikni koʻp vazifalilikka bogʻlab oʻrganish lozim. Koʻp maʼnolilik shakldoshlikka yaqin turadi, koʻp maʼnolilik oʻrtasidagi aloqa uzilib ketsa, shakldoshlik yuzaga chiqadi.

*-m, -imiz, -ng* egalik shakllari bir vaqtning oʻzida yoki bir soʻz tarkibida (yoki bir soʻz turkumi doirasida) boshqa-boshqa vazifa bajarmayotganligi sababli bu holatni koʻp vazifali deb boʻlmaydi. *-m, -imiz, -ng* shakllarni ichki bogʻlanishlarini hisobga olib, shakldoshlikdan koʻra koʻp maʼnoli shakllar deb hisoblash kerak. Bu

<sup>1</sup> Аюб Гуломовнинг илмий мероси. 1-5-китоблар. –Тошкент, 2005-2009.

<sup>2</sup> Sayfullayeva R. va boshqalar. Hozirgi oʻzbek tili. Oʻquv qoʻllanma. –Toshkent: Fan va texnologiyalar. 2009. – B.142.

uch affiks ikki soʻz turkumida turli shakllarning (egalik va shaxs-son) turli maʼnolariga nisbatan nomutanosibdir. Demak, morfologik shakllar tizimida koʻp maʼnolilik maʼnoga nisbatan nomutanosiblikni yuzaga chiqaradi.

### 1.1-jadval.

#### Egalik va shaxs-sonda nomutanosiblikning koʻrinishi.

Shaxs	Birlik	Egalik	Shaxs-son (oʻtgan z.)	Koʻplik	Egalik	Shaxs-son (kelasi z.)
I	-(i)m	Xulosa+m	Keldi+m	-(i)miz	Xulosa+miz	Kela+miz
II	-(i)ng	Xulosa+ng	Keldi+ng	-(i)ngiz	Xulosa+ngiz	Kela+siz
III	-i, si	Xulosa+si	Keldi+ Ø	-(lar)i	Xulosa+lari	Keladi+ Ø

Bir paradigmada oʻrinlashgan ikki shaklning parallel ishlatilishi uslubiy nomutanosiblikni koʻrsatsa, bir paradigmanning turli shakllar bilan ifodalanishi shaklning maʼnoga nisbatan nomutanosibligini koʻrsatadi. "... sifatning ozaytirma shaklini yasovchi *-ish* va *-(i)mtir*; son soʻz turkumi tizimida jamlovchi son shaklini yasovchi *-ov*, *-ala*, *-ovlon* sinonim affikslardir: koʻkish – koʻkimtir; beshov – beshala – beshovlon"<sup>1</sup>. Demak, sifatlarda daraja shakli: *-ish* va *-(i)mtir*; sonlarda jamlovchi shakl: *-ov*, *-ala*, *-ovlon*; feʼllarda nisbat shakli: *-t* va *-tir* (ishlat va ishlatir); *-dir* va *-giz* (toʻldir va toʻlgiz) maʼnodoshlik asosida nomutanosiblikni yuzaga chiqarmoqda. Yuqoridagi misollardan kelib chiqib aytish mumkinki, morfologik shakllar tizimida yuzaga kelayotgan maʼnodoshlik – shakllarning bir maʼno uchun xizmat qilishi morfologik nomutanosibliklarni koʻrsatib beradi.

Ayrim adabiyotlarda<sup>2</sup> koʻp vazifalilikni koʻp maʼnolilikka aralashtirib berishadi. Koʻp vazifalilikda shaklni ikki soʻz tarkibida tekshirish orqali emas, ayni bir soʻz tarkibida ikki (baʼzan undan koʻp) vazifani bajara olish asnosida belgilash lozim. Koʻp maʼnolilikda esa bir shaklning bir maʼnosi, boshqa soʻzlar tarkibida boshqa maʼnosi ifodalanishi kerak.

Morfologik shakllar tizimidagi *-ing* shakli shaxs-son va zamon (oʻrni bilan mayl) shakllarida, *-gan* shakli sifat-dosh va zamon shakllarida, *-ish* shakli nisbat va harakat nomi shakllarida (soʻz yasovchi vazifasida ham), *-man*, *-san* shakllari shaxs-son va kesimlik shakllarida, *-di* shakli zamon va shaxs-son shakllarida, *-sa* shakli mayl shakli va bogʻlovchi vositasida, *-cha* kichraytirish shakli (oʻrni bilan piching shakli: askarcha, shoircha, blogercha) va soʻz yasovchi shakl (*oʻzicha*) (oʻrni bilan oʻxshatish yuklamasi: *moshcha aqli yoʻq*) sifatida, *-lar* shakli (feʼllarda) koʻplik va hurmat shakllarida, *-ma* shakli boʻlishsizlik va soʻz takrorini bogʻlash evaziga soʻz yasovchi (*yuzma-yuz*, *qoʻlma-qoʻl*, *koʻchama-koʻcha* (oʻrni bilan soʻz yasovchilik: *koʻchma*)) shakllarda, *-v* shakli harakat nomi va soʻz yasovchi (saylov, oʻlchov) shakllarida koʻp vazifalilikni koʻrsatadi hamda vazifa jihatidan nomutanosiblikni yuzaga chiqaradi.

<sup>1</sup> Berdialiyev A., Ermatov I. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. –Toshkent: Tamaddun, 2022. –B. 50.


<sup>2</sup> Islomov I. Oʻzbek tili geografik terminlarida polifunksionallik // Xalq taʼlimi. 2021, 6-son. –B. 56.

Ikkinchi bobning ikkinchi bo‘limi “**Agglyutinatsiya va fuziya jarayonlarida nomutanosiblikning yuzaga chiqishi**” deb nomlanib, unda agglyutinatsiya va fuziya jarayonlari orqali sodir bo‘lgan nomutanosibliklar o‘rganib chiqilgan. So‘z tarkibi o‘zgarsa, yangi tarkib eskisiga nisbatan nomutanosib bo‘lib qoladi. Boshqacha qilib aytganda, ikki shakl (diaxron va sinxron jihatlarida) bir mazmuni ifodalaydi, ammo ulardan biri eskirgan yoki o‘zgargan bo‘ladi.

Morfologik shakllarning asos tarkibiga birikishi natijasida yoki ikki shaklning birikuvi – agglyutinatsiyasi natijasida nomutanosiblik yuzaga chiqadi. Taraqqiyot natijasida ro‘y bergan o‘zgarish shaklga ta’sir o‘tkazadi va turli holatda fuziyaga uchrab, tashqi tomondan asl (dastlabki) shakldan boshqasiga o‘tadi yoki boshqa shakl qiyofasini oladi. Bunda shakl o‘zgarishi bilan mazmun saqlanib qoladi, ayrim holatlarda shakl o‘zgarmay qolib, mazmun ifodalamay qo‘yadi.

Bu o‘zgarishlar morfologik shakllar tizimida turli holatlarda o‘rinlashadi hamda turli shakl va mazmun nomutanosibliklarini yuzaga keltiradi. Asos va morfologik shaklning o‘zaro zich birikishi natijasida yangi asosning hosil bo‘lishi orqali ravish so‘z turkumlarining ayrimlari vujudga kelgan: *-dan* shaklining asosga birikuvidan – *birdan, to’satdan, qo‘qqisdan...*; *-da, -ga* shakllarining asosga birikuvidan – *tezda, quyida; birga, jo‘rtaga...* Morfologik shakllarning agglyutinatsiya tufayli asoslar tarkibiga birikib olishi, kelishik shakllarining o‘z mavqeyini yo‘qotishi hisobiga nomutanosiblikni yuzaga chiqarmoqda.

Shakl va mazmun borasidagi nomutanosiblikning yana bir ko‘rinishi an’anaviy tartibdagi 1:1; 1:2; 2:1 sxemalardir. Bu sxemalarda mazmun bilan shakl orasidagi munosabat ifodalanadi. Ya’ni 1:1 shaklning aniq bir farqlanuvchi elementi bir morfemaga mazmun tomonining bir vazifa birligi to‘g‘ri kelishi kerak: *bola-lar*, bunda *-lar* shakl tomonidan 1 ga teng, mazmun tomonidan ham ko‘plik affiksi 1 ga teng. Bir shaklga bir necha mazmun birligi 1:2 sxemasida (*keldilar – -lar* bir shaklga ega bo‘lsa ham, ikki mazmuni bermoqda: 1-ko‘plik, 2-hurmat), bir necha shaklga bir mazmun birligi 2:1 sxemasi (*bormoq, borish* so‘zlaridagi *-moq, -ish* affikslari shakli ikkita bo‘lsa ham, mazmunan bir affiksdir)ga mos tushadi (2.1-rasm).



### 2.1-rasm. Shakl va mazmun nomutanosibligining ifodalanishi.

*Fuziya* – yangi morfem birikmalar hosil qiluvchi jarayon, alohida usul. Qo‘shimchalar hosil bo‘lishining fuziya usuli bir necha affiksial morfemalarning o‘zaro zich birikib ketishini anglatadi, bunda qo‘shma affiks tarkibidagi elementlarning birikib ketishi, to‘g‘ridan to‘g‘ri qismlarga ajratishning mumkin emasligi, oradagi chegara signallarining yo‘qolishi kabi holatlar anglashilib turadi.

Morfologik shakllar tizimidagi nomutanosibliklarni yuzaga chiqarayotgan affiks + affiks fuzyasi ot va sifatdagi *-choq, -loq, -gina, /i/msira, -i/nqira* kabi kichraytirish shakllari ikki va undan ortiq vazifaviy o'xshash shakllardan tarkib topgan; *-dagi, -moqchi* kabi qo'shimchalar esa vazifaviy noo'xshash qismlardan tuzilgan. Bunday shakllar o'zbek tilida fuzyaning keng tarqalgan ko'rinishlaridir. Ko'rinadiki, bir necha morfemalarning o'zaro fuzyalanishi uchun o'zak (asos)ning vazifa jihatidan faolligini yo'qotishi, ayniqsa, oraliq halqalarda keluvchi morfemalarning o'z ma'no va vazifasidan uzoqlashishi, shuningdek, morfemalarning tutashuv nuqtalarida fonetik o'zgarishlarning ham sodir bo'lishi zaruriy sharoitdir.

Agglyutinatsiya turkiy tillardagi grammatik shakllarni hosil qilishning qadimiy usuli hisoblanadi. Ikki so'zning birikuvidan yangi birlik paydo bo'ladi, hosil bo'lgan birlik analitik yoki sintetik holatda bo'lishi mumkin. O'zbek tilida ham shunga o'xshash murakkab morfologik birliklarning yasaliş jarayoni mavjud. Bu hodisa bir vaqtning o'zida sodir bo'lmay, vaqtlar o'tishi bilan yuzaga keladi. Agglyutinatsiya hodisasida so'zlarning boshqa so'zlardan yoki birikmalardan hosil bo'lishi, affiksga aylanishi tillarning o'ziga xos ko'rinishini ifodalaydi. Turkiy tillarga xos jihatlar shuni ko'rsatadiki, bu jarayon fe'l so'z turkumi doirasida ko'proq amal qiladi<sup>1</sup>. Bu holat odatda kesimning rivojlanishida ko'rinadi. Shuning uchun fe'llarning analitik shakllari sodda va qo'shma affikslar miqdorini boyituvchi manba hisoblanadi: *keltirmakda turur men – keltirmaktaturmen – keltirmaktadurmen – keltirmakdamen – keltirmoqdaman*. Keltirilgan misoldan ko'rinadiki, agglyutinatsiya hodisasi fe'l so'z turkumida ko'proq uchraydi.

Fe'llarda I-II shaxsda zamon + shaxs-sonning (III shaxsda zamon + zamonning) agglyutinatsiyasidan sintetik shakllar hosil bo'ladi. Hosil bo'lgan sintetik shakl fuzya tufayli ajralmas holatga kelib qoladi: *bor+yap+man, bor+yap+san, bor+yap+di (bor+yapti)*. Zamon va shaxs-sonning fuzyasidan *-yapman, -yapsan, -yapti* kabi sintetik shakllar hosil bo'ladi va bu shakllar bo'linmasdan ifoda etiladi.

Bobning **“Morfologik shakllar taraqqiyotida nomutanosiblikning yuzaga chiqishi”** deb nomlangan uchinchi bo'limida morfologik shakllar tizimi bilan bog'liq taraqqiyot, bu jarayonda morfologik shakllarning o'zgarishlari, morfemalarning dastlabki morfemaga nisbatan nomutanosiblikni yuzaga chiqarishi kabi masalalar yoritilgan.

Hozirgi o'zbek tilidagi morfologik shakllar so'z yoki affiks tarkibidagi fonetik o'zgarishlar tufayli ham nomutanosiblikni yuzaga chiqaradi. Bizga ma'lumki, morfologik shakllardagi fonetik o'zgarishlarni morfonologiya bo'limi tekshiradi. Uning obykti bo'lgan bunday o'zgarishlar so'zlardagi morfemalar miqdorining tarixiy jihatdan ko'rinishlari boshqacha bo'lishini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday o'zgarishlar taraqqiyot tufayli sodir bo'lib, asoslar qo'shimchalar bilan moslashadi. Moslashish jarayonida ayrim morfemalar shaklan o'zgaradi (harf ortadi, almashadi, tushadi) va bu o'zgarishlar turli

---

<sup>1</sup> Ўзбек тили грамматикаси. I жилд. –Тошкент, 1975. –Б. 501-513.

nomutanosibliklarni yuzaga chiqaradi: *-ga* shakli soʻzning qanday undosh bilan tugashiga qarab *-ka*, *-qa* (kirill grafikasida *-fa*) koʻrinishida oʻzgarsa, badiiy uslubning talabi bilan *-a* (koʻnglim koʻnglinga tushdi) shaklida ham qoʻllanadi. Morfologik shakllar orasida ayrim nisbat shakllari ham shu holatda oʻzgarishga moyil boʻlib, taraqqiyot bilan bogʻliq holda nomutanosiblikka uchraydi: *-dir* (*-tir*) – yozdir (oʻqittir); *-kaz* (*-qaz*) – yetkaz (oʻtqaz) singari. Buni sifatdoshning *-gan*, *-kan*, *-qan*; ravishdoshning *-gach*, *-kach*, *-qach*; *-gusi*, *-qusi*; *-guncha*, *-kuncha*, *-quncha*; *-gani*, *-kani*, *-qani* shakllarida ham kuzatish mumkin. Morfologik shakllar taraqqiyotida bunday shakllarning variantlari – allamorflari asos tarkibidagi soʻnggi undoshga bogʻliq boʻlib, shaklga nisbatan nomutanosiblikni yuzaga chiqaradi.

Koʻp maʼnolilikdan shakldoshlikka qarab intilish vaqt oʻtgani sari oʻzgarib boradi va ular orasida bogʻliqlik batamom uziladi: *uy-ga* (joʻnalish kelishigi shakli), *erta-ga*, *tekinga* (shakl yasovchi), *ena-ga* (shakl yasovchi), *ter-ga* (moq) kabi. Morfemalarning taraqqiyoti asosida bir shaklning boshqa-boshqa mazmunlar ifodalashi mazmun nomutanosibligini yuzaga chiqarmoqda.

Morfologik shakllarning ayrim turlari – *ishimiz*, *ishingiz* kabi soʻzlardagi egalikning I-II shaxs koʻplik shakllari, tarixan I-II shaxs birlik shakli *-im*, *-ing* hamda *biz*, *siz* olmoshlarining qisqaruvidan (fuziyalashuvidan) hosil boʻlgan. Shuningdek, *bordim* soʻzida birlik, *boramiz* soʻzidagi koʻplik shaxs-son shakllaridagi *-miz* koʻrsatkichi ham xuddi shunday qoʻshma affiksdir: *-m+iz*. *Мун барам*, *киләм* shakldagi soʻzlar boshqa turkiy (tatar) tillarida ham kuzatiladi. Demak, *-m* shaxs-sonda birlik shaklda ishlatilgan, *-iz* esa yuqorida taʼkidlaganimizdek, kishilik olmoshlarining fuziyasidan hosil boʻlgan koʻplik shakl hisoblanadi. Qiyoslang: *koʻtardi-ng+iz* – *koʻtardi+ngiz*, *koʻrdi-ng+iz* – *koʻrdi+ngiz*.

Feʼning sifatdosh shaklidan: *-mish* (bormish, kelmish – oʻtmish, kechmish); feʼning boʻlishsiz shaklidan: *-ma* (isitma – toʻgʻrama, boʻgʻma); feʼning nisbat shaklidan: *-(i)l* (koʻrildi – qamal) affikslari taraqqiyot natijasida soʻz yasovchi maqomini hosil qilgan. Endilikda bunday shakllar shakldoshlikni hosil qilmoqda. Yaʼni bir shakl ikki mazmunga xizmat qilishi evaziga oralaridagi bogʻliqlik uzilib ketgan. Qamaldi, buraldi soʻzlaridagi nisbat shakli hisoblangan *-(i)l* ham konversiya yoʻli bilan soʻz yasovchiga oʻtgan: *ayir+il* – *ayril*; *qama+l* – *qamal* singari. Demak, morfologik shakllarda ham koʻchish yoʻli bilan boshqa shakllarni hosil qilish holati mavjud boʻlib, bunday holatlar morfologik shakllarning taraqqiyoti bilan bogʻliq boʻladi. Shuningdek, bunday shakllar dastlabki shaklga nisbatan nomutanosiblikni yuzaga chiqarishga sabab boʻladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Morfologik shakllar nomutanosibligining koʻrinishlari va xususiyatlari”** deb nomlanib, uning birinchi boʻlimida **“Nomutanosiblikning til sathlari bilan aloqadorligi va xususiyatlari”** oʻrganilgan.

Oʻzbek tilida morfologik shakllar nomutanosibligining til sathlari bilan aloqadorligi har doim kuzatiladi. Chunki har bir tilda boʻlgani kabi, oʻzbek tilida ham har bir sath boshqa bir sathga aloqador tarzda ifodalanadi, oʻrganiladi.

Leksikologiyaning morfologiyaga, sintaksisga aloqasi bo'lgani singari, morfologiyaning ham so'z tarkibiga ko'ra morfemikaga, asos va yasovchilar bilan yonma-yon tarzda so'z yasalishiga, so'zlarning ma'nolari bo'yicha leksikologiyaga, semasiologiyaga, grammatik ma'nolarning ifodalanishiga ko'ra sintaksisga har doim aloqasi mavjud. Bu aloqalar o'ziga xos xususiyatlarda namoyon bo'ladi.

Nomutanosiblikning leksikologiya va so'z yasalishi bo'limlari bilan aloqador bo'lgan xususiyatlaridan biri shaklga nisbatan nomutanosiblikdir. Shaklga nisbatan nomutanosiblik har bir sohada, fanda mavjud. Uning borligi, ma'lum shakldagina ifodalanadi. Shaklga yuklangan mazmun uning turli belgilarini ko'rsatadi. Bizningcha, nomutanosiblik dastlab shaklda paydo bo'ladi, keyin esa mazmunda rivojlanadi. Leksik jihatdan so'zlar shakl va mazmun munosabatida turli ko'rinishlarga ega, jumladan, yasama so'zlar ham. Bunda shakl jihatidan nomutanosiblikka ega bo'lish ma'lum bir shaklda namoyon bo'ladi. Bu holat leksemalarda ham, so'z va shakl yasovchi morfemalarda ham kuzatiladi.

Semantikani til yoki uning biron bir birligi orqali ifodalanadigan butun mazmun, ma'no, axborot<sup>1</sup> sifatida talqin qiladigan bo'lsak, ayrim so'zlar tarkibi bo'linmas holatga kelib qoladi. Natijada so'z anglatayotgan mazmun tashqi tomondan qismlarga ajraladigandek ko'rinadi: *maymunjon* (o'simlik), *olmaxon* (hayvon). *Maymun-jon*, *olma-xon* kabi ajratib tahlil qilish nomutanosib bo'lib, semantik jihatdan ham, morfologik jihatdan ham to'g'ri bo'lmaydi, chunki tashqi tomondan erkalash shakliga o'xshaydigan *-jon*, *-xon* qismlari va *maymun*, *olma* singari so'zlari mavjudligi sezilsa-da, *maymunjon* va *olmaxon* so'zlarini maymun va olmaga aloqasi yo'q. Bu semantik jihatdan nomutanosib bo'lib qoladi.

*Yurish*, *o'ynash* so'zlarining ham otlashish asosida hosil bo'lgan ma'nolari (garchi *yur+ish*, *o'yna+sh* tartibida morfologik shakllardan hosil bo'lgan bo'lsa-da) semantik jihatdan yaxlilashgan (frazemalashuv). Endi ular bildiradigan yangi mazmun asl mazmunga nisbatan nomutanosib bo'lib qoldi: *o'ynash* – o'yin-kulgi qilmoq, *o'ynash* – sevishib yurmoq; *yurmoq* – harakatlanmoq, *yurmoq* – sevishmoq, *o'ynashmoq*. “Binobarin, semantikaning o'rganish obykti ham, asosan, to'liq, mustaqil ma'noli so'zlar va gaplarning ma'nolar tizimidir”<sup>2</sup>. Shunday ekan, shakllarning semantik o'zgarishi mustaqil ma'noli so'zlar sifatida qaralishini ifodalaydi. Semantika belgilar o'rtasidagi munosabatlar hamda ular nimani anglatishini ifodalasa, *o'yna+sh* va *yur+ish* kabi morfologik shakllarning so'zlar tarkibida o'rinlashib qolib, yangi mazmun uchun xizmat qilishi nomutanosiblikning semantika bilan aloqadorligini ko'rsatadi.

Bobning “**Morfologik sintagmalarda nomutanosiblikning diaxron va sinxron ko'rinishlari**” deb nomlangan ikkinchi bo'limida ayrim morfologik shakllarning diaxron va sinxron ko'rinishlari tadqiq qilingan. Har qanday sintagmadagi morfologik shakl(lar) ma'lum paradigmaga asoslangan bo'lib, semiotik jihatdan mutanosib yoki nomutanosib bo'lishi mumkin. Shu sababli

<sup>1</sup> Mirtojdiyev M. Semasiologiya. –Toshkent, 2016, 1-bob. –B. 10-76; Mirtojdiyev M. Gap bo'laklarida semantik-sintaktik nomutanosiblik. –Toshkent, 2008. –B. 7-194.

<sup>2</sup> <https://qomus.info/oz/encyclopedia/s/semantika/>

paradigmada mavjud bo'lgan birliklar semiotikaga bog'liq holda o'rganiladi. Sintagma ko'rinishidagi mutanosiblik nutq zanjirida ifoda va mazmun sathi tengma-teng tarzda belgilanishini taqozo etadi, ya'ni ifodalanuvchining mazmun va shakllar miqdori mos keladi. Bu holat ayni damdagi sinxroniyaning mahsulidir. Ammo diaxroniya sintagmadagi har bir shaklni sinchiklab, qiyoslab o'rganishni taqozo etadi. Bunda ifoda sathi birliklarining mazmun sathi birliklariga nisbatan miqdori teng kelmay qolib, turli nomutanosibliklarning yuzaga kelishi holatlari kuzatiladi.

Turkiy tillarda, jumladan, o'zbek tilida bir qancha grammatik kategoriyalarda qo'shimchalar birdan ortiq grammatik ma'nolarni ifodalaydi: *-(i)m* (do'stim) egalik qo'shimchasi ham I shaxs, ham birlik ma'nosini; *-man* (*to'qiyman*), *-k* (*ko'rdik*) shakllari ham xuddi shunday xususiyatga ega: bu morfemalar ham I shaxs, birlik sonda, I shaxs ko'plik ma'nolarini anglatadi, ya'ni ifoda sathiga tegishli bir birlik mazmun sathiga tegishli ikki birlikni aks ettiradi: mayl shakllari ham tarkibida bir necha mazmun birligini tashib kela olish qobiliyatiga ega: *-(a)y* (*ko'ray, yuray*): I shaxs, birlik sonda.

O'zbek tilida agglyutinatsiya tufayli mustaqil so'zlar morfologik shakllar (paradigmalar) ixtiyoriga tortilib, qo'shimchalarga aylana boradi. Bu jarayon yuqorida ta'kidlaganimizdek, ko'proq fe'l so'z turkumiga xosdir. Chunonchi, *-yap, -yapti, -yotib, -digan* kabi affikslar *yotib, yotibdi, tur* (*turg'on*) shakllarining qisqarishidan hosil bo'lgan. Bu shakllarda so'z tarkibining keyingi qismlari affikslashish jarayonini o'tagan bo'lsa, *obor* (olib bor), *ober* (olib ber), *obchiq* (olib chiq), *obke* (olib kel), *obko'r* (olib ko'r) singari shakllarda so'z tarkibining oldingi qismlari ana shu jarayonni boshdan kechirgan. Bunday shakllarning qayta o'zgarishida nutq bosimining kuchli ta'siri bor. Mazkur qisqargan shakllar og'zaki nutq morfemikasi birliklari hisoblanib, ularni shevalarda ko'plab kuzatish mumkin. Shu jihatiga ko'ra diaxron va sinxron ko'rinishlar ifoda sathi birliklarining mazmun sathi birliklariga nisbatan o'zgargan. Bunday o'zgarishlar morfologik shakllarda nomutanosiblikni ko'rsatadi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, *-adi* (boradi) kompleksidagi *-di* "qoldiq" shakl bo'lib, uning shaxs-son qo'shimchalariga hech bir aloqasi yo'q. Quyidagi morfemalar birikuvi, ya'ni "yotib shakli + shaxs-son affikslari" qo'shimchasining qisqarishi hozirgi tilda *-yapman, -yapsan, -yapmiz, -yapsiz* kabi formantlarni hosil qilgan bo'lsa, III shaxsda esa qo'shma affiksni hosil qilgan (*-yapti*): *boryapman, boryapsan, boryapti; boryapmiz, boryapsiz, boryaptilar*. *Boryap-* (bor+yap-) asos mavjudligi sababli "bog'li" shaxs-son qo'shimchalari bilan birikishi uni qo'shma affikslar doirasiga yaqinlashtiradi. Yana: *bor-gu-m, bor-gu-ng, bor-gusi, bor-gu-miz, bor-gu-ngiz, bor-gu-lari* paradigmasida *-gu* arxaiklashgan bo'lishiga qaramay, shaxs-son qo'shimchalari tarkibida o'z funksional qiymatini yo'qotmaydi. Umuman olganda, sintetik shakllar nomutanosibligi diaxron va sinxron ko'rinishlarda mavjud ekanligi oydinlashadi: bir ifoda planining ikki mazmun planida namoyon bo'lishi nomutanosiblikdan boshqa narsa emas.

**"Affiksoidlarning yuzaga kelishi bilan bog'liq nomutanosibliklar"** nomli bo'limda erkalash va kichraytirish affiksoidlari (*-toy, -xon, -jon, -xo'ja, -oy,*



-*poshsha*, -*mirza*, -*bek*, -*qo'zi*), ularning taraqqiyoti, shakl va ma'no munosabati o'rganilgan.

Bizga ma'lumki, affiksoidlar mustaqil so'zlar sifatida ishlatilgan, o'z ma'nosini yo'qotish evaziga affiks maqomini olgan, so'zlar tarkibida morfologik yoki so'z yasash shakllariga nisbatan qo'llanadigan, vazifa jihatidan affiksga tortilgan birliklarga aytiladi. Ayrim mustaqil so'zlarning yordamchi so'zlarga aylanishi holatlari turkiy tilshunoslikda V.V. Radlov, Yevropa tilshunosligida E.Sepir asarlarida ko'rsatib berilgan. Bu xususida o'zbek tilshunosligida A.G'ulomov, A.Hojiyev, Sh.Rahmatullayev, A.Berdaliyev, Y.Tojiyev, T.Mirzaqulov, J.Eltazarov, A.Pardayev, G.Karimova, Z.Isoqovlarning ishlarida ham fikrlar bildirilgan.

*Xon* so'zi mustaqil holatda (*ulug' xon*, *xonliklar davri*) *podshoh* ma'nosida ifodalanadi. *Xon* mustaqil leksema sifatida paydo bo'lib, vaqlar o'tishi bilan affikslar tomonga qarab siljigan. So'zning bu holatda kelishi so'z sifatida to'g'ri. Biroq affiksoid sifatida o'z ma'nosini saqlamagan.

So'zning dastlabki taraqqiyotida o'z o'rnida, leksema ma'nosida *Tug'luq*, *Qutbiddin*, *Muhammad*, *Alovuddin* singari ismlarda *podshoh* mazmunini berish uchun qo'shilib, *Tug'luq xon*, *Qutbiddin xon*, *Muhammad xon*, *Alovuddin xon* tarzida idodalangan. Taraqqiyotning keyingi bosqichiga kelib esa ismlarga -*xon* sifatida qo'shilish urf bo'lgan. Bu jarayon tezlashgani sari so'z o'z xususiyatini yo'qotib, affiksga tomon tortilgan va affiksoid maqomini olgan. *Xon* so'zining affiks sifatida ham kela olishi mazmunga nisbatan nomutanosiblikni keltirib chiqargan va taraqqiyotning mahsuli sifatida affiksoid maqomini olgan. Dastlab unvonni ifodalagan ushbu affiksoid, keyinchalik naslni ifodalashga erishgan, davrlar o'tishi bilan ko'plab ismlarga qo'shilib, erkalash shakliga aylangan. Natijada mustaqil so'z affiksoid tusini olgan. Bugungi kunda bunday affiksoidlarni morfologik shakllar nuqtayi nazardan erkalash shakli sifatida o'rganamiz.

-*xon* affiks sifatida erkalash shakli bo'lganligi bois asl ma'nosidan batamom uzoqlashib ketgan. Bu affiksoid erkalash bilan birgalikda hurmatlash ma'nosida ham qo'llanadi, ya'ni xonga qiyoslanib, hurmatlanadi: *Azimxon* (*Ulug'xon*). -*xon* affiksoidining jins ajratish holati, asosan, ayollar ismiga qo'shilsa, erkaklar ismiga esa naslni ifodalash, hurmatlash uchun qo'shiladi. Bu affiksoidning xonga tegishli ayol mazmunida *xonim* so'ziga ham aloqasi bor. Ayollar ismiga qo'shilib *Nodiraxonim*, *Dildoraxonim*, *Lutfiyaxonim* tarzida ishlatilishini ham kuzatish mumkin. Bu jarayon ismda hurmatlash ma'nosi ortiq ekanligini ko'rsatadi. *Jamolxon*, *Nodirxon*, *Baxtiyorxon* tipidagi ismlarda esa nasabni ifodalash uchun ishlatiladi. Ya'ni bu ism egalari xonlar avlodidan yoki yuqori lavozimda ishlagan shaxslar avlodi ekanligi bilan ifodalansa, yana bir turi (oqsuyak) eshonlarga aloqadorlikni kuzatamiz. Juda kam hollarda erkaklar ismida erkalash vazifasini bajaradi: *Hidoyatxon*. -*xon* affiksoidi so'z ma'nosida, unvonni ifodalash, nasabni ifodalash, hurmatlash ma'nosida, erkalash ma'nosida har ikki jins vakillari ismlariga qo'shilib kela oladi va o'ziga xos shakliy nomutanosiblikni keltirib chiqaradi.

Shuningdek, *-xon* affiksoidi o‘ziga yaqin olish, o‘sha kishiga suyanish mumkin bo‘lgan, qarindoshlar qatoriga qo‘shish mumkin bo‘lgan, bordi-keldi qilib yurgan kishilarga hurmat ko‘rsatish mazmunida ham ishlatiladi. Bunday hollarda affiksoid turdosh otlarga ham qo‘shiladi: *aka+xon*, *uka+xon* kabi. Demak, *Jamolxon* so‘zida nasabni, *Dildoraxon* so‘zida erkalashni, *akaxon* so‘zida hurmat mazmunini ifodalaydi va bir shaklning turli mazmun ifodalashiga ko‘ra nomutanosiblikni yuzaga chiqaradi.

Dissertatsiyaning to‘rtinchi bobi “**O‘zbek tili morfologiyasida murakkab shakllarning hosil bo‘lishidagi nomutanosibliklar**” deb nomlanadi. Bobning birinchi bo‘limida “**Sintetik shakllarning hosil bo‘lishida nomutanosiblikning yuzaga chiqish**” masalasi o‘rganilgan.

Sintetik shakllarning hosil bo‘lishi, tarkibdagi har bir morfema va ularning ma‘nolari, yaxlitlashuvdan so‘nggi mazmunlari asl (genetik) shakllarga nisbatan nomutanosiblikni yuzaga keltiradi. Shu jihatdan olib qaralganda, sintetik shakllarning hosil bo‘lishidagi ayrim nomutanosibliklar haqida fikr bildirishni lozim topdik.

**-(i)miz, -(i)ngiz shakllari.** II shaxs ko‘plikdagi egalik shakllari (ayrim shaxs-son shakllari ham) *-(i)miz*, *-(i)ngiz* ko‘rinishida ifodalanadi. Bu shakllar o‘z taraqqiyoti va rivojiga ega. Ko‘pchilik olimlar bu taraqqiyotni kishilik olmoshlari bilan bog‘laydilar.

Masalaning ikkinchi tomoni esa *-(i)miz*, *-(i)ngiz* shakllari tarkibi va ulardagi shaxs va son tushunchalarini belgilab olishda. Adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, mustaqil so‘zlarda (ismlarda) son ko‘rsatkichi birlik va ko‘plik shaklda ifodalanadi. Birlik sonda “nol” ko‘rsatkich bo‘lsa, ko‘plik sonda *-lar*, *-iz* (qadimda) shakli bilan ifodalanadi: *sovg‘a* – birlik; *sovg‘alar* – ko‘plik. Demak, birlik sonda son ko‘rsatkichi shaklan mavjud bo‘lmaydi. Shu sababli *-(i)m*, *-(i)ng* shakllarida shaklan son mavjud emas, aniqrog‘i nol ko‘rsatkichiga ega. Bu shakllar tashqi tomondan mutanosib holda faqatgina shaxsni ifodalaydi xolos. Son ko‘rsatkichi ko‘plikni ifodalashini hisobga olsak, *-(i)m+iz*, *-(i)ng+iz* shaklida shaxslarga qo‘shiladi va shakl murakkablashadi hamda nomutanosiblikni yuzaga chiqaradi. Ilgari faqat I-II shaxs ifodasini berib turgan shakl endilikda son ko‘rsatkichiga ham ega bo‘lib, shaxs va son tushunchasi kelib chiqadi. Bu xususda professor Sh. Rahmatullayev shunday yozgan edi: “Egalik affikslari tarkibida odatda avval shaxs ko‘rsatkichi, keyin son ko‘rsatkichi joylashadi: *-m+iz*, *-ng+iz* kabi. Demak, I, II shaxs ko‘plik affikslari shaxs ko‘rsatkichi bilan son ko‘rsatkichining birlashuvidan tarkib topgan”<sup>1</sup>. Darhaqiqat, *-(i)miz*, *-(i)ngiz* shakllari tarixda shaxs va sonning birlashishidan hosil bo‘lgan murakkab – sintetik shakl hisoblanadi. Bunda son shaklining qayta tiklanishini ham kuzatish mumkin: *-(i)nglar*, *-laring* shakllari kabi. Umuman olganda, *-(i)miz*, *-(i)ngiz* shakllari murakkab – sintetik shakllar bo‘lib, ularning asl mohiyati ikki shakl bir mazmun ifodalash sharti bilan nomutanosiblik sodir etgan bo‘lsa, mazmunning kengayishi egalik, shaxs-son semalarining o‘rinlashuvi yangi nomutanosiblik uchun asos bo‘lgan. Bo‘limda

<sup>1</sup> Ўзбек тили грамматикаси. I жилд. –Тошкент, 1975. –Б. 148.

*-niki, -choq, -loq, -gina, -imtir, -gacha, -tacha, -tadan, -larcha, -moqda, -moqchi, -digan, -yotgan, -ajak, -adi, -guncha, -ganacha, -yapman, -yapsan* shakllari tahlilga tortilib, ulardagi nomutanosibliklar ilmiy asoslangan.

To'rtinchi bobning ikkinchi bo'limi "**Kengaygan shakllar taraqqiyotidagi nomutanosibliklar**" deb nomlanadi. Murakkab shakllar orasida kengaygan shakllar o'ziga xos o'rin egallaydi. Kengaygan shakllar tashqi tomondan sintetik shakllar (qo'shma affiks)larga o'xshab ketadi. Kengaygan shakllar bilan qo'shma affikslar orasida muhim tafovutlar bor. Masalan, qo'shma affiksning ma'nosi tarkibidagi qismlar (-im+iz, -ni+ki, -im+tir, -ga+cha, -ta+cha) ma'nosining yig'indisidan iborat bo'lishi, shuningdek, yangi bir ma'no hosil qilishi (-imiz, -niki, -imtir, -gacha, -tacha) lozim. Kengaygan shakllarda esa bir qismning alohidaligi bilinib turadi: bunda sintetik shaklning qismlari zichlashib, semantik yaxlitlashib, ajralmas holga kelib qolgan bo'lsa, kengaygan shakllarda qismlar hali zichlashmagan, yaxlitlashish kuchsiz, qismlar orasidagi aloqa mustahkamlanmagan, kuchaytiruvchi, qo'shimcha ma'no beruvchi qism bilan kengaygan bo'ladi: *-ayin, -ingizlar, -ibon* kabi. Bu xil shakllarning yuzaga kelishi so'zning oxiri boshlanish qismiga nisbatan qisqarishga moyil ekanligini ko'rsatadi.

**-inglar shakli.** Tarixiy taraqqiyot bosqichlarida turli asos morfemalar va affikslar ma'lum darajada rivojlanadi, o'zgaradi. Bu taraqqiyot til birliklarining o'zgarishi (ma'nosi, vazifasi va shaklining kengayishi, torayishi)ga sabab bo'ladi. Morfologik shakllarning bunday shakl va mazmun munosabati uzoq tarixiy jarayonlarning mahsuli hisoblanib, tilda shaklga nisbatan nomutanosibliklarni ko'rsatadi.

A.Kononov ma'no va vazifasi o'xshash qo'shimchalarning yangi butunlik – qo'shma affiks tarkibiga yaxlitlanishi yoki ma'no-vazifasi susaygan affiksga xuddi shu ma'no-vazifadagi mahsuldor affiksning orttirilishi turkiy tillar, oltoy tillari, umuman, dunyo tillarida keng tarqalgan hodisalardan biri ekanligini ta'kidlagan edi<sup>1</sup>. Haqiqatan, bunday kengayish turkiy tillarda, shu jumladan, o'zbek tilida qadimdan keng tarqalgan hodisadir. Buni buyruq-istak maylining II shaxs ko'plik va birlik shakllarining paydo bo'lish tarixi va o'zaro munosabatida ko'rish mumkin. Turkiy tillar qatorida o'zbek tili tarixida ham ushbu mayl II shaxs ko'pligi uchun *-nglar, -ngiz, -ngizlar* qo'shimchalari keng ishlatilgan.

Fe'llarda buyruq-istak mayli hisoblangan *-inglar* shakli II shaxs ko'plikni ifodalaydi: *bolalar, vazifani bajar**inglar***. Sintagmada berilgan *-inglar* shakli ma'no va mazmun holatiga ko'ra mutanosib ifodalanadi. Ya'ni mazmun nuqtayi nazardan II shaxs tomonidan berilayotgan buyruq-istakni shu shakl yuzaga keltirmoqda. Masalaga boshqa tomondan qaralganda esa, ayni shu mazmunni buyruq-istak maylining II shaxs ko'plik *-ing* shakli ham ifodalaydi: *bolalar, vazifani bajar**ing***. Bu holatdagi *-ing* shakli ham ma'no va shaklda mutanosibdir. Agar ikki shakl (*-inglar* va *-ing*) ham bir mazmunga xizmat qilsa, bunda ikki shakl birligiga bir mazmun birligi to'g'ri kelib, shakl nomutanosibligini hosil qiladi. Chunki aynan

<sup>1</sup> Кононов А.Н. О природе тюркской агглютинации // Вопросы языкознания. 1976. – №4. –С. 8.

bir mazmuni ifodalayotgan ikki shakl bir-biridan qaysi jihati bilandir farq qiladi. Ikki shaklni ajratib turadigan yagona jihat bu *-lar* shaklidir.

Ayrim shakllar o'zlarining vazifasini kuchli egallash maqsadida o'zlari bilan mazmunan mos keladigan bir shaklni olib kengayadi. *-ing* mayl shakli ham hurmat mazmuniga tortilib, ko'plik mazmuni susayib borayotganligi uchun II shaxs ko'plikni mustahkamlash va tiklash maqsadida yana bir ko'plik shakli bilan kengayadi. Natijada biz bilgan *-lar* ko'plik shakli *-ing* mayl shakli bilan birikib, o'z mavqeyini qisman yo'qotadi va maylni kuchaytiruvchi, ta'kidlovchi unsuriga aylanadi. Bu yerda *-lar* morfemasi faqatgina kuchaytiruvchi, ta'kidlovchi emas, ko'plik sifatida ham e'tirof etsak, *-ing* ko'plik mayl shaklida pleonazm yuz bergan deyshga asos bo'ladi.

Agar *-ing* mayli ko'plik sonda emas, hurmat mazmunida yakka shaxsga qaratilgan bo'lsa, bunda "*-lar*"ning keragi bo'lmay qoladi. *Otaxon, o'tiring(lar?)*. Demak, fe'llarning buyruq-istak mayli hisoblangan *-ing* shakli II shaxsda *-lar* ko'plik shaklini olib kengayadi: *-inglar – keling, do'stlar; do'stlar, kelinglar* kabi. Bu kengayish asl shaklga nisbatan shakliy nomutanosibdir: *boring – boringlar*.

Shuningdek, bo'limda *-(i)ngiz, -(i)ngizlar, -sinlar, -(a)yin* mayl; *-sizlar* shaxs-son, *-ovlon* jamlovchi son shakli, *-xonim* erkalash-kichraytirish shakli, *-(i)bon; -moqlik, -(i)shlik; -ganlik* kabi fe'l shakllari ham o'rganilgan bo'lib, kengaygan shakl sifatida nomutanosibliklarning yuzaga chiqarishi ilmiy asoslab berilgan.

Bobning "**Analitik shakllarda nomutanosiblik**" nomli so'nggi bo'limida analitik shakllarning hosil bo'lishi, taraqqiyoti va bu taraqqiyot natijasidagi nomutanosibliklar tadqiq etilgan. Turkiy tillar va o'zbek tili tarixida ayrim sintetik shakllar o'rniga analitik shakllar, ayniqsa, ko'makchi fe'llarning faollashganligi qo'shma affikslarga o'xshash, biroq mustaqil til birligi – analitik shakllarni yuzaga keltirgan.

Tildagi bunday o'zgarishlar ma'lum ma'noda fanga kiritilishi, shuningdek, ularning o'rni va mavqeyini belgilash lozim. Analitik shakllar tashqi tomondan maylga, ravishdoshga, sifatdoshga o'xshash shakllar bilan mustaqil so'zga o'xshash birliklar (ko'makchi fe'llar, to'liqsiz fe'llar) birikividan tashkil topgan murakkab shakllardir. Chunki analitik shakl tarkibida ravishdosh va sifatdosh o'z vazifasini bajarmaydi va shaklni asosga bog'lash, tutashtirish rolini o'taydi. Analitik shaklning ikkinchi qismi bo'lib keladigan mustaqil so'zga o'xshash birliklarni fe'llik, umuman, so'z vazifasi yo'qolgan bo'ladi.

Agar (o'qib chiqmoqda *-chiqning*) *chiq* fe'lini mustaqil so'z deb olsak, mustaqil so'zning uchta talabini bajarishi lozim. Ko'makchi fe'llar esa mustaqil ma'no anglatmaydi, so'roqqa javob bo'lmaydi, gapda mustaqil vazifa bajarmaydi. Shu sababli bunday birliklarni vazifadosh ko'makchi deb nomlash to'g'ri bo'ladi. Masalaning ikkinchi tomoni analitik shakllar yaxlit bir ko'rinishda asosga qo'shilib kelishini inobatga olib, morfologik shakllar deb yuritilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki analitik shakllar tarkibidagi ko'makchi fe'llar endi affiksoidlarga o'xshab, affiksga tortilgan birliklardir.

**-y ket- shakli.** O'zbek tili morfologik shakllar tizimida murakkab shakllarning analitik shakllar turi ancha keng tarqalgan. Ular orasida *o'ylay ketdi, o'qiy ketdi,*

